

## ADABIYOT MUZEYI - YIRIK ILMIY TADQIQOT VA MA'RIFAT MARKAZI

Hasanova Shafolat Saidbekovna  
ORIENTAL universiteti "Sharq tillari"  
kafedrası prof.v.b., fil.f.d.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10430102>

**Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi O'zbekiston shoir va yozuvchilarining boy qo'lyozma merosi saqlanadigan fondlariga ega Respublikaning yirik ilmiy-tadqiqot va ma'rifat markazi hisoblanadi. Maqolada ushbu Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondining tashkil etilishi, shuningdek, Hamid Sulaymonovich Sulaymonovning yodgorliklarni izlash va to'plash borasidagi muvaffaqiyatli faoliyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Qo'lyozmalar fondi, ilmiy ekspeditsiya, miniatyura, mikrofilm, qo'lyozma nusxa, devon, ekspozitsiya.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi O'zbekiston shoir va yozuvchilarining boy qo'lyozma merosi saqlanadigan fondlariga ega Respublikaning yirik ilmiy-tadqiqot va ma'rifat markazi hisoblanadi. Muzey o'zining matnshunoslik va manbashunoslik sohasidagi ilmiy salohiyati bilan mamlakatimizda etakchi ilmiy muassasa sifatida ma'lum.

Muzey dastlab 1967 yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibida faoliyatini boshlaganda uning birinchi rahbari filologiya fanlari doktori, professor H.S. Sulaymonov muzeyda qo'lyozmalar fondini tashkil etishdek ulkan rejani muzeyning asosiy vazifasi sifatida belgiladi. Buning uchun arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etildi hamda aholidan qo'lyozma va toshbosma kitoblarni sotib olish ishlari yo'lga qo'yildi.

Yirik navoiyshunos Hamid Sulaymonov rahbarligida qator xorijiy davlatlar qo'lyozma fondlariga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalar natijasida vatanimizga boy qo'lyozma meroslar keltirilgandi. Buyuk bobokalonlarimiz yaratgan nodir asarlar jahonning deyarli hamma fondlarida saqlanib kelinmoqda.

Jahon qo'lyozma fondlari va shaxsiy kutubxonalarda saqlanayotgan SHarq qo'lyozma kitoblarini, ayniqsa O'rta Osiyo xalqlariga aloqadorlarini aniqlash, ularning nusxalarini to'plash maqsadida Hamid Sulaymonov Afg'oniston, Fransiya, Angliya va Hindiston mamlakatlariga safarlar uyushtirdi. Xususan, Hindiston ekspeditsiyasi natijasida kitob fondlarida saqlanayotgan 138305 tom arab, fors, o'zbek, ozarbayjon tillaridagi qo'lyozmalardan 297 tasiga qisqa tavsif berilib, 41ta qo'lyozmaning mikrofilmi, kitobat san'ati va SHarq miniatyuralari, mingdan ortiq nodir namunalarining rangli slaydlari olib kelindi. Fransiya va Angliya kutubxonalaridan Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi", "Boburnoma" asari, XV asr shoiri Gadoiyning devoni, Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror", Alisher Navoiy "Kulliyot"i foto nusxalari, badiiy bezakli qo'lyozmalari va asarlariga ishlangan rangli miniatyuralarning fotonusxalari olib kelindi. Keltirilgan hamma materiallar respublikamizda chop etildi va ilmiy iste'molga kiritildi.

Hindistonning Haydorobod shahridagi Salarjang muzeyi fondida saqlanayotgan va XIV-XV asrlarda yashab ijod etgan, lekin fanga noma'lum bo'lib kelgan xorazmlik o'zbek shoiri Abdurahim Hofiz Xorazmiyning yagona qo'lyozma devoni olim tomonidan aniqlandi. Devon nusxasi hozirgi alifboga o'girilib nashr qilindi. Hindistonda topilgan ikkinchi yirik shoir XV

asrda yashagan Said Qosimiy bo'lib, uning to'rt falsafiy-axloqiy masnaviylarining qo'lyozmasi Rampurdagi "Rizo" kutubxonasidan fotoga tushirib keltirildi.

Bundan tashqari Hindistonda yashab, o'zbek tilida ijod etgan Diyda, Forig'iy devonlari mikrofilmlari olib kelindi. Haydarobodlik olimlardan birining shaxsiy kutubxonasidan Abdurahmon Jomiyning fanga hali ma'lum bo'lmagan asari "Ijozati al-tabiiy"ning shoir qo'li bilan yozilgan nusxasi ham fotoga olindi.

Shunday qilib, ustoz Hamid Sulaymonovich Sulaymonovning ma'naviy merosimiz yodgorliklarini izlash va to'plash sohasida olib borgan barakali faoliyati natijasida Alisher Navoiyning "Ilk devon", "Badoe' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya", "Devoni Foniy", o'nta forsiy qasidalar "Sittai zaruriya" va "Fusuli arbaa", "Hazoyin ul-maoniy"ga kiritilmagan 57 g'azal va bir qancha ruboiy, qit'a, Gadoiy "Devon"i, Said Qosimiyning masnaviylar majmuasi kabilar ilmiy iste'molga kiritildi.

1978 yilga kelib muzey fondida 10.000 ga yaqin qo'lyozma va toshbosma asarlar yig'ildi. Keyinchalik bu ulkan madaniy-ma'rifiy meros muzey bazasida "Qo'lyozmalar instituti"ning tashkil etilishiga asos bo'ldi va u hukumat qarori bilan Hamid Sulaymonov nomi bilan yuritildi. Adabiyot muzeyi 1991 yilgacha mazkur institut tarkibining ekspozitsiya bo'limi sifatida faoliyat olib bordi.

Hamid Sulaymonov Hazrat Navoiy adabiy merosini bir erga jam qilish maqsadida Fransiya, Angliya, Turkiya, Hindiston kitob fondlaridan shoir qo'lyozma kulliyotlarining eng mo'tabar nusxalarini ilmiy ekspeditsiyalar va ilmiy aloqa bog'lash yo'li bilan Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining navoiyshunoslik ilmiy laboratoriyasiga to'pladi. Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan kulliyot nusxasining faksimile nashrini kulliyot tarkibiga kirmay qolgan boshqa asarlar bilan to'ldirib bosmaga tayyorladi. SHoir asarlarining o'n tomlik rus tilidagi nashrini chop ettirish ishlarini muzey jamoasi bilan birgalikda amalga oshirdi.

1998 yilda Qo'lyozmalar institutining faoliyati tugatildi. Qo'lyozmalar institutidagi qo'lyozma va toshbosma kitoblar fondi O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik institutiga berildi.

1991 yildan so'ng Adabiyot muzeyi O'zbekiston Fanlar akademiyasining mustaqil tashkilotiga aylantirilgandan keyin Ustoz Hamid Sulaymonov boshlagan xayrli ishlarining davomi sifatida uning shogirdi Saidbek Hasanov boshchiligida muzey qo'lyozma fondini yangidan boyitish va boy qo'lyozma merosimizni xalq orasidan to'plash va xarid qilish sohasida katta ishlar amalga oshirildi. Fondga qo'lyozma to'plash, ularni birlamchi ishlovdan o'tkazish, ilmiy tavsiflash va kataloglarni tuzish ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus olimlar guruhi tuzildi. Bu guruh ishini akademik Aziz Qayumov ko'p yillar davomida boshqardi. SHu kunga qadar olimlarning sa'y-harakati bilan muzey fondi 2000 ga yaqin qo'lyozma va toshbosma kitoblar bilan boyidi.

Ular orasida Sa'diy Sheroziyning 1636 yili ko'chirilgan kulliyoti, Abdurahmon Jomiyning "Tuhfatul ahror" qo'lyozmasining 1578 yili ko'chirilgan nusxasi, Nizomiy Ganjaviyning XVI asrga oid "Maxzan ul-asror"i, Xusrav Dehlaviyning 1575 yilda ko'chirilgan "Xamsa"si, Fig'oniy, Nozim Hiraviy, Abdullo Hotifiy, Husayn al-Koshifiy, Temurshoh Afg'oniy va boshqa shoir va yozuvchilari qo'lyozma asarlarining qadimiy nusxalari alohida ajralib turadi.

Qo'lyozma va toshbosma asarlar orasida salmog'i jihatidan tabiiyki, Hazrat Navoiy asarlari nusxalari etakchilik qiladi. Qo'lyozmalar 67 ta, toshbosma va foto nusxalar 72 tani tashkil qiladi. Muzey fondida saqlanayotgan "Badoe' ul-bidoya" asarining nodir qo'lyozma nusxasi Navoiy barhayot paytida ko'chirilgan. Xattot Ali ibn Nur bu devonni hijriy 891 yil milodiy

1486 yil Hirotda yozib tugatgan. U “Badoe’ ul-bidoya” qo’lyozmalari orasida eng to’lasidir. Bu qo’lyozma Hirotdagi qadimiy kitobat va xattotlik san’atining yorqin namunasidir.

Adabiyotga oid qo’lyozmalar muzey xazinasining katta bir qismini tashkil etadi. Bu erda o’zbek va fors-tojik adabiyotining mashhur namoyandalari bilan bir qatorda hali o’rganilmagan yoki kam o’rganilgan asarlarning qo’lyozmalari ham bor. Shular jumlasiga Mavlono Xoja Qozi Rizoiy Payvandiyning “Qush tili” asari, Nosir Xo’janing “Layli va Majnun” dostoni, Xojazoda Ahmad Hilmiyning naqshbandiya tariqatiga oid “Hadiqat ul-avliyo”, Shohidiyning mavlaviylik tariqatiga bag’ishlangan “Gulshani tavhid”, Sulton Muhammad Balxiyning “Majma’ ul-g’aroyib” asarlari qo’lyozma nusxalarini kiritish mumkin.

So’nggi yillarda bir guruh olimlarimiz tomonidan muzey fondida saqlanayotgan qo’lyozma va toshbosma asarlarning kataloglari o’zbek, rus va ingliz tillarida nashrga tayyorlandi va ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi.

Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o’rganish, uning o’lmas asarlarini yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda keng targ’ib qilish hamda xotirasini abadiylashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga munosib tuhfa tarzida O’zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi Yu. Tursunov tomonidan “Muhokamatu-l-lug’atayn” asarining yangi ilmiy nashri amalga oshirildi. Ushbu nashrga Hamid Sulaymonov keltirgan Hindistonning Haydarobod shahridagi Salarjang muzeyida saqlanayotgan Alisher Navoiy “Kulliyot”i tarkibidagi “Muhokamatu-l-lug’atayn” asarining foto nusxasi va boshqa qo’lyozma nusxalar jalb qilingan holda ilmiy-tanqidiy matni, tabdili hamda o’zbek tiliga soddalashtirilgan matni berildi.

Muzey fondida shu yillar mobaynida nafaqat shoir va adiblarning asarlari qo’lyozmalari, balki tarix, islom falsafasi, tasavvuf ilmi, meditsina, geografiya, astronomiya, tilshunoslik va fanning boshqa sohalariga oid qo’lyozma va toshbosma asarlar munosib o’rin egallab kelmoqda. Ular vaqti-vaqti bilan muzeyning ekspozitsiya zallarida namoyish qilinib, tomoshabinlarga xalqimiz yaratgan ma’naviy boylikka nisbatan faxr tuyg’ularini uyg’otish bilan birga, vatanimiz va xorijiy olimlar diqqat-e’tiborini o’ziga jalb qilib kelmoqda.

### References:

1. Alisher Navoiy. “Muhokamatu-l-lug’atayn” ilmiy-tanqidiy matn / Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi YUSuf Tursunov. -T.: Fan, 2021. -160 b.
2. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan qo’lyozmalar katalogi / Tuzuvchilar: S.Hasanov, J. Jo’raev, SH. Hasanova, M. Rashidova, – T.: Firdavs-Shoh, 2022. - 564 b.
3. Katalog rukopisey gosudarstvennogo muzeya literatury im. Alishera Navoi / podgotovka k izd: A.Kayumova, B.Xasanova, B.Kasimxonova, M.Rashidova, J.Juraev, S.Kadirova, F.Ikramova, O.Alimova, SH.Xasanova. -T.: 2006. -256 s.
4. S.Hasanov. Zahmatkash olim/ Sovet O’zbekistoni. -1981. 2 may.
5. Sh. Khasanova. About the manuscript fund of the museum of literature / Innovative Development of modern science:theory, methodology, practice. International Scientific and Current Research Conferences. March 25, 2022. Pages: 66-69.